

**"O'QUVCHI YOSHLARGA MUSIQA MADANIYATI ORQALI TA'SIR
E'TUVCHI PEDAGOGIK OMILLARNING SAMARADORLIGI"**

**"ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ,
ВЛИЯЮЩИХ НА УЧАЩУЮСЯ МОЛОДЕЖЬ ЧЕРЕЗ
МУЗЫКАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ"**

**"EFFECTIVENESS OF PEDAGOGICAL FACTORS INFLUENCING
STUDENTS THROUGH MUSICAL CULTURE"**

Qurbonaliyeva Sohobaxon Xolmuhammad qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

abdullayevabashoratxon31@gmail.com (+998942727558)

ORCID ID 0009-0004-8911-1467

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarning ma'naviy va estetik kamolotida musiqa madaniyatining tutgan o'rni hamda unga ta'sir etuvchi pedagogik omillar yoritilgan. Shuningdek, musiqa tarbiyasining samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, pedagogik sharoitlar va metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqa orqali yosh avlodda ijtimoiy faollik, tafakkur va badiiy didni shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, pedagogik omillar, yoshlar tarbiyasi, estetik tarbiya, did tarbiyasi, ta'sirchanlik, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль музыкальной культуры в духовном и эстетическом развитии учащейся молодежи, а также эффективность педагогических факторов, влияющих на этот процесс. Анализируется значение современных подходов, педагогических условий и методов в повышении эффективности музыкального воспитания. Также исследуются пути формирования социальной активности, мышления и художественного вкуса у подрастающего поколения через музыку.

Ключевые слова: музыкальная культура, педагогические факторы, воспитание молодежи, эстетическое воспитание, художественный вкус, влияние, эффективность.

Annotation: This article explores the role of musical culture in the spiritual and aesthetic development of school-age youth, focusing on the effectiveness of pedagogical factors that influence this process. It analyzes the importance of

modern approaches, pedagogical conditions, and methods in enhancing the impact of music education. The study also discusses ways to foster social activity, critical thinking, and artistic taste in young people through music.

Keywords: *musical culture, pedagogical factors, youth education, aesthetic education, artistic taste, influence, effectiveness.*

Kirish: Pedagogik tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, musiqa madaniyati orqali o'quvchilarga estetik tarbiya berish yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar, ijodiy faoliyat va multimedia vositalari bilan boyitilgan musiqa darslari o'quvchilarning musiqiy madaniyatini, badiiy dunyoqarashini va shaxsiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa pedagogik omillarning to'g'ri tanlanishi va ilmiy-metodik asosda qo'llanilishining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, ularga sog'lom muhit yaratish, jamiyatdagi o'rinlarini shakillantirish va ularni vatanparvarlik ruhida o'stirish. Bundan tashqari ularning dunyoqarashini shakillantirish, IQ darajasini oshirish hamda xotiralarini mustahkam bo'lishini ta'minlash uchun maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari va hattoki maxsus internatlarda ham musiqa madaniyati darslari olib borilmoqda. Butun dunyo bo'ylab esa musiqa madaniyatining barkamol avlod ruhiyatiga qanday ta'siri bor ekanligini, musiqa orqali bolalarda ko'p uchraydigan nutq kamchiliklari va ruhiyat muammolarini davolash inklyuziv ta'limda musiqaning ta'sir doirasi va musiqa madaniyati darslarining ahamiyatini ochib beruvchi ko'plab tadqiqotlarni ilgari surilmoqda. Shunday tajribalarga tayangan holda Mamlakatimiz O'zbekistonda ham musiqa madaniyati darslariga ko'plab yangiliklar kiritilayotganini inobatga olishimiz joiz. Musiqa madaniyati darslarining o'sib kelayotgan yosh avlod uchun qanday foydali tomolari bor ekanligini va qaysi yoshda qanday ta'siri mavjud ekanini tadqiqotlarim orqali tushuntirib beraman.

Birinchi tadqiqotim 44-sonli Maktabgacha ta'lim muassasida bo'ldi. Bu yerda men 3 yoshdan 6,5 yoshgacha bo'lgan 40 nafar bolalar ustida tadqiqot o'tkazdim. Tadqiqotimni ilk kunlari bolalarni kuzatishdan boshlandi ya'ni ular bilan ishlashim uchun men dastlab ularning xarakterlarini fikrlashlari va qobililyatlarini bilib olishim lozim edi. Ularni dastlabki ikki hafta ichida faqatgina kuzatdim. Tarbiyachi xodimlar o'rgatayotgan bilimlarga nisbatan ko'rsatayotgan munosabatlari va xotiralar qay darajada mustahkam ekanligini o'rganib chiqdim. Mening diqqatimni jalb qilgan narsa ulardagi uyalish hissi bo'ldi ya'ni bolalar ko'plab savollarning javobini bilishsa ham go'yoki noto'g'ri javob beradiganday o'zlarini tortishardi. Ular orasida umuman gapirishni boshqa bolalarga qo'shilishni istamaydigan bolalarni ham ko'rdim. Sababini qidirishga haror qildim

va so'rab surishtirish ishlaridagi harakatlarim tufayli angladimki birining ota-onasi xorijda ishlayotgan va bola hozirda yaqin qarindoshlari tomonidan tarbiyalinayotgan ekan. Fikrlashimcha bolada bir necha foiz tushkunlik va asabiylik mavjud shuning uchun u o'zini tortishga va ijtimoiy aloqalardan chekinishga harakat qiladi bola o'z qobig'iga o'ralib olgan. 2-xolatesa ota-onasi ajrim yoqasida turgan oilaning farzandida kuzatildi u xam badjaxil va juda odamovi bo'lib qolgan. Boshqa bolalarda esa ma'lum foizlarda musiqaga jo'shqinlik qiziquvchanlik bor. Ayrimlarining shijoatlari to'lib toshmoqda ayrimlarida esa harakatlanish darajasi juda sekin. Uchinchi haftadan boshlab men bolalar bilan ritmik tadqiqotlar o'tkazishni boshladim bunda bolalarning 66% musiq ritmlarini ossonlik bilan o'xshatishdi. Qarsaklar orqali va oyoq harakatlari orqali ritmlarni o'xshatishga kirishib ketishdi. 3 yoshli bolalarda musiqani anglash darajasi pastroq chunki ularda hali ko'nikmalar yaxshi rivojlanmagan. Uch yoshli bolalarning 20 % qarsak chalishni ham bilmaydilar. Qolgan 80% esa qarsak va oyoq harakatlarini bir vaqtning o'zida birgalikda harakatlantira olmaydi. Lekin tadqiqodlarim samara berib men ularda tanalarining turli qismlarini bir vaqtning o'zida harakatlantira olishlariga erishdim. Dastlab ularda tartibsiz harakatlar bo'lgan bo'lsa tadqiqotlarimning 6-haftasi bolalar ancha musiqaga qiziqib qoldi 4 yoshli va 5 yoshli bolalarda musiqiy savodhonlik darajasi bir oz bo'lsada majudligi tufayli ularga ritmikani o'rgatish ossonroq bo'ldi. 6 yoshli bolalar bilan esa bu jarayon yanada qiziqroq bo'ldi chunki ulardagi sulh yani eshitish va eslab qolish darajasi ancha kuchliroq shakillangan ekan.

Yoshlaridagi tavfovudga binoan ularga turli murakablikdagi ritmika mashqlarini bajartirdim. Shu orqali ulardagi eshitish qobiliyatini rivojlantirishga, xotirani mustahkamlashga va ham musiqiy ham jismoniy mashqlar haqidagi ko'nikmalarni berishga erisha oldim deb o'ylayman. Bu jarayonda angladimki inson organizimi ritmik mashqlarni bajarish davomida yurak urishi tezligini o'zgartirishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Musiqadagi temp esa buni boshqarishdagi eng qudratli vositadir. Uch oylik muddat ichida bolalarda musiqani tinglab turib unga ham ohang holda harakat qilishni o'rgatdim. Ajablanarli tomonlari shundaki ularga musiq madaniyati darslarni o'rgatish davomida tushkunlik holatiga tushgan va boshqa bolalar bilan ijtimoiy aloqadan cheklangan bolalarda ham musiqaga bo'lgan qiziqishni uyg'otdim. Tadqiqotlarimning to'rtinchi oyidan boshlab deyarli barcha bolalar musiq ritmlarini osongina anlash qobiliyatiga ega bo'ldilar. Oddiy ritmik mashqlar orqali ularni raqsga bo'lgan qiziqishlari ortdi bu orqali men ularni jismoniy harakatlariga ham ta'sir ko'rsatdim. Tadqiqotlarimning yana bir foydali tomoni bolalardagi harakatlanish

tezligini ortirishi bo'ldi. To'rt, besh oy oralig'ida bolalar barcha turdagi musiqalarning ritmik ohangiga munosib harakatlarni amalga oshiradigan bo'ldilar. Keyingi qadamlarda ya'ni tadqiqotlarimning yettinchi va sakkizinchi oyida esa bolalardagi kognativ rivojlanishni oshirish maqsadida Kselafon cholg'usining kichkina versiyasi ya'ni Metala fon orqali ishlashni boshladim. Va eng ahamiyatlisi bu jarayonga eng avvalo ijtimoiy aloqalarda nuqsoni bor o'zining olamida yashab boshqa tengdoshlaridan ajralib oladigan bolalarni jalb qildim. Men bilardimki yangicha cholg'u ularda qiziqish uyg'otishi aniq edi. Dastlab metalafonni faqatgina bir qo'l orqali ya'ni o'ng qo'l orqali ijro etishni o'rgatdim bu o'z o'zidan bolalardagi bitta yarimsharni ishlashini ta'minlab berdi.

Bu borada bolalarga metalafon cholg'usida ijro etishning ossonlashtirilishi maqsadida ranglardan foydalanilganligi bolalarda bu cholg'u asbobini chalishni o'rganishni ossonlashtirdi. Ma'lum bir muddatdan so'ng men ularga chap qo'lning o'zida cholg'u sozida ijro etishni o'rgatdim. Bu orqali ularning ya'na bir miyya yarimsharlarini ishlatishga erishdim. Undan keyingi rejalarimda esa bolalarni metalafon cholg'usi orqali ijro etish jarayonini ikki qo'lda teng bajarishni tadbiq qilib ko'rdim. Bu jarayon orqali ularning ikkala miya yarimsharlarini bir vaqtda ishlatishga erishdim. Dastlab bolalarda ohanglarni birin ketinliklarni eslab qolish darajasi taqriban atiga 35 % ga teng bo'lgan bo'lsa Metalafon cholg'usini o'rganganidan so'ng ulardagi eslab qolish qobiliyati 65 % ga oshdi deya bemalol ayta olaman. Nima uchun? Chunki musiqa madaniyati bolalardagi eslab qolish qobiliyatini yaxshilashiga yordam beradi. Cholg'u sozlarida ijro etishni o'rganish orqali bolalarning kognativ savodxonligini yaxshilash mumkin. Keyingi qismlarda musiqa savodxonligi bolalardagi boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishini ta'minlash uchun muhim qadam bo'ladi. Misol uchun ingliz tillini o'rganish darajasi yoki rus tilidagi ayrim so'zlarni yodlashda musiqa savodxonligidan foydalanish ham juda samarali hisoblanadi. Chunki ohanglarni eslab qolish darajasi bolalarda so'zlarni yodlash darajasidan 20% yoki 30% darajasida balkim undan ham yuqoriroq bo'ladi. Albatta miya yarimsharlari musiqiy ohanglarni boshqa infarmatsiyalardan ko'ra yaxshiroq qabul qiladi va uzoqroq vaqt xotirada saqlay oladi. Shuning uchun ham musiqa orqali ingliz tilli yoki boshqa tillarni o'rganishda va hattoki matematik raqamlarni o'rganishda ham musiqiy savodxonlikdan foydalanish eng to'g'ri va samarali yo'l bo'lib hisoblanadi. Musiqa-bu san'at, o'yin-kulgi, zavq, meditatsiya va ruh va tana uchun dori deb topilgan. Biroq, juda baland va noto'g'ri tanlangan musiqalar odatda bolalarni eshitish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shovqin va nomutanosiblik ayrim hollarda kasalliklarga olib keladi. Tadqiqotlarim davomida musiqaning insonga ayniqsa yosh bolalarga shifobaxshlik ta'siri borasidagi to'g'ri tanlangan

ya'ni bolalar yoshiga munosib soddaroq tuzulmada tuzilgan musiqalar ko'proq samaraliroq bo'ladi. Ilm fan tomonidan olganda tovushlarning ya'ni ohanglarning oqsillarga ta'siri o'simliklar va inson salomatligi haqida yangi tushuncha beradi. Ya'ni bundan kelib chiqadiki musiqaning ham ijobiy ham salbiy ta'sirlari mavjud va musiqa faqatgina ruhiyatgagina emas, balki tana a'zolariga, moddalar almashinuvlariga ham turlicha ta'sir ko'rsata oladi. Tadqiqotimning 7-8- oylarida Musiqiy savodxonlik bolalardagi tassavur va ijodkorlikni ham oshirgani ma'lum bo'ldi chunki dastlabki oylarda bolalar men qanday ritmik harakatlarni ko'rsatsam barchasini ortimdan qaytargan bo'lsa endilikda bolalar o'zlarini harakatlaridan qo'shib yangicha raqs mashqlarini ko'rsatib berishmoqda. Ya'ni bolalarning tassavur doirasi yanada kengaydi. Demak musiqa maktabgacha yoshda bo'lgan bolalari uchun musiqa savodxonligi sog'lom rivojlanishlariga ko'maklashtiruvchi vositalardan biri.

Keyingi tadqiqotim Quvasoy Shahar 5 - sonli umumiy o'rtata'lim maktabida bo'ldi. Bu yerda men boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib bordim ya'ni 1 - sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan bolalarda tadqiqot o'tkazdim. 1-sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi darslariga kirdim va u yerda 30 ta turli harakterdagi turlicha oilaviy sharoitda ulg'ayotgan bolalarda tadqiqot o'tkazdim. Dastlab bolalarga musiqa savodxonligida nimalarni bilishlarini so'radim va boshlanish qismidanoq bolalarni guruh bilan kelishib ishlashga o'rgatdim. Shu tariqa bolalardagi ijtimoiy aloqani rivojlantirishga urundim. Bolalardagi dunyoqarash fikrlash va egallagan bilim darajalarini o'rganib chiqdim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir oz erkalik qillish darajasi yuqoriroq bo'ladi ayniqsa 1-sinf o'quvchilarida musiqa haqidagi tushunchalar bir oz boshqacharoq bo'ladi. Tadqiqotim turli yoshdagi bolalarning musiqa savodxonligini oshirish va ularga musiqa va san'at orqali pedagogik ta'sir o'tkazishni sinab ko'rdim. Tadqiqotimning asl mohiyati Musiqa madaniyati orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning ruhiyatiga, psixologiyasiga ta'sir o'tkazish bo'ldi. Va buni amalga oshirish uchun qanday pedagogik mahorat va texnologik metodlar kerak ekanligini ham tadqiqotim orqali yoritib berishga harakat qilaman. tlab o'quvchilar bilan tanishib olish usulini qo'lladim. Qiziqroq bo'lishi uchun musiqiy ohangda salomlashishni o'rgatdim. 1-sinfdan to 4-sinfgacha shu usuldan foydalandim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bolalarcha beg'uborlik borligi va uyalish o'zini oshkor etishdan qochish kamligi tufayli ular bilan chiqishishim osson bo'ldi albatta. Keyingi qadamda har bir o'quvchini birma-bir qarsak mashqi bilan sinovdan o'tkazdim bunda har bir o'quvchi uchun 4 xil ritmdagi qarsaklarni chalib ko'rsatdim va bolalardan har bir qarsakli ohangimni ortimdan qaytarib menikiday qilib ijro etib berishini so'radim. Albatta bunga ko'p vaqtim ketdi chunki har bir sinfda kamida 30 ta yoki 32 tadan o'quvchi tahsil olar

ekan. Lekin bu natija berdi va men bu orqali bolalarni sulh qobiliyati ya'ni eshitib aniqlash va xattoki xotirada eslab qolish davomiyligini ham tekshirib oldim. Tadqiqotlarimdan ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan biri bu

sinf o'quvchilari psixologik jihatdan va fiziologik xarakteriga ko'ra ma'lum darajada diqqat e'tibori, nutqi, xotirasi, to'liq rivojlanmagan bo'ladilar. Shuning uchun 1-sinf o'quvchilari serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Bu jarayonda bolalarni ritmik o'yinlar bilan qiziqtirish ancha samarali bo'ladi. So'zlari unchalik murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni o'rgatish esa ulardagi nutq va xotira mustahkamligini ta'minlab beradi. 2-sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik xarakterlariga ko'ra 1-sinf o'quvchilariga nisbatan hech qancha farq qilmaydilar. Bu yoshdagi o'quvchilarning diqqat e'tibori tez-tez chalg'ib turadi. Bunga sabab ular o'yin bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ko'proq moyil bo'lishadi. Tadqiqotimda inglizcha so'zlarni o'rgatishga va matematik terminlarni bolalarga tez va oson uslubda o'rgatishga urinib ko'rdim. Dastlab bu jarayon zerikarli va qiyin kechdi va musiqa solib ohanglar bilan o'rgatishni boshlaganimdan so'ng bolalar darsimni qiziqish bilan qabul qila boshladilar. Darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyati bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asosan tushuntirilishi lozim ekanligini tushundim. 3-sinf o'quvchilari esa o'zlarining psixologik va fiziologik xarakterlariga ko'ra diqqat e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, musiqaning mazmuni va janrlari, tuzilishi va shakli hamda boshqa san'at turlari bilan aloqasi haqidagi bilimlarni yaxshiroq anglaydilar. Musiqa tinglash jarayonlarida bolalar asarlarning xarakteri, sur'ati, mazmuni hamda ifoda vositalarini anglashadi va mustaqil fikr bildiradi. 4-sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakterlariga ko'ra ancha rivojlangan, tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'un bo'ladi. Eng ahamiyatlisi jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikr mulohaza yuritish, hajm jihatdan yirikroq bo'lgan asarlarni tinglab mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Musiqa tinglay olish va undan zavqlana olish va asl mohiyatini anglashga harakat qilish, ham katta san'at ekanligini bolalar bu darajadagi yoshda anglay boshlaydilar. Aslida insonlarda musiqa tinglash madaniyati ilk yoshlik davrlaridanoq rivojlana boshlaydi. O'quvchi bolalar musiqa darsining barcha faoliyatlari va jarayonlarida musiqani tinglab uni idrok etadi. Lekin musiqa darsining musiqa tinglash qismida o'ziga xos muhim vazifalar turadi. Avvalo shuni hisobga olish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga nisbatan tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi. Misol uchun: milliy cholg'u sozlari ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish osonroq bo'ladi. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida

o'quvchilarning badiiy tafakkuri va idroki yaxshi rivojlanib borishini kuzatish mumkin.

Ushbu tadqiqot ishida musiqa madaniyatining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rnini, uning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri, shuningdek, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda musiqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar o'rganildi. Ilmiy-amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, ritmik va cholg'uli mashg'ulotlar orqali bolalarning eslab qolish qobiliyati, musiqiy savodxonligi, ijtimoiy faolligi va estetik didi sezilarli darajada rivojlanadi.

Shuningdek, xorijiy tajriba va milliy an'analarni uyg'unlashtirish asosida yaratilgan dars ishlanmalari va o'quv-metodik materiallar natijasida ta'lim samaradorligi oshadi. Tadqiqot natijalari kelgusida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. “Ўзбек халқ музикаси тарихи”. Тошкент: Фан, 2002.
2. Иброҳимов З. “Музикаий маданият асослари”. Тошкент: Ўқитувчи, 2017.
3. Мамадалиева Д. “Музика ва бола психологияси”. Самарқанд, 2020.
4. Мирзаахмедов Х. “Ўзбек миллий музикаий мероси ва унинг ривожланиши”. Тошкент, 2010.
5. Dewey J. Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company, 1934
6. Campbell, P.S. Music in Childhood. Boston: Schirmer, 2010.
7. Farabi, A. Kitab al-Musiqa al-Kabir. Qadimgi manba tarjimalari, 9-asr.
8. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – 2021-yil.
9. STEAM tizimi bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2023.
10. Internet manbalari: www.ziynet.uz, www.edu.uz, www.researchgate.net